# KORXONALAR BIRLASHUVIDA AKTIV VA MAJBURIYATLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

***Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug‘li***
*“Saturn Metal Qayta Ishlash” MCHJ bosh buxgalteri, PhD*
*e-mail: jamshidbek.abdurasulov@mail.ru*
*ORCID: 0000-0003-1630-86940*

***Annotatsiya.*** *Maqolada korxonalarni bo‘lish, ajratib chiqarish va tashkiliy-huquqiy maqomini o‘zgartirish jarayonlarini buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirishning nazariy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Qayta tashkil etish jarayonlarida aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalni baholash, taqsimlash va voris sub’ektlarga o‘tkazish tartiblari takomillashtirilgan. Hisob axborotlarining ishonchliligi va shaffofligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *qayta tashkil etish, bo‘lish, ajratib chiqarish, tashkiliy-huquqiy maqomni o‘zgartirish, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, vorislik, baholash farqlari, taqsimlash balansi.*

***Аннотация.*** *В статье исследованы теоретико-методологические основы отражения в бухгалтерском учёте и финансовой отчётности процессов разделения, выделения и изменения организационно-правового статуса предприятий. Усовершенствованы порядок оценки, распределения и передачи активов, обязательств и собственного капитала правопреемникам в процессе реорганизации. Разработаны научные предложения и практические рекомендации, направленные на повышение достоверности и прозрачности учётной информации.*

***Ключевые слова:*** *реорганизация, разделение, выделение, изменение организационно-правового статуса, бухгалтерский учёт, финансовая отчётность, правопреемство, разницы оценки, разделительный баланс.*

***Abstract.*** *The article examines the theoretical and methodological foundations of reflecting the processes of division, spin-off, and change in the organizational and legal status of enterprises in accounting and financial reporting. The procedures for the valuation, allocation, and transfer of assets, liabilities, and equity to successor entities during reorganization processes have been improved. Scientific proposals*


*and practical recommendations aimed at enhancing the reliability and transparency of accounting information have been developed.*

***Keywords:*** *reorganization, division, spin-off, change in organizational and legal status, accounting, financial reporting, succession, valuation differences, allocation balance sheet.*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning strategik o‘sishi va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan muhim iqtisodiy jarayonlardan biri korxonalarni qo‘shib yuborish va qo‘shib olishdir, boshqacha nom bilan aytganda biznes birlashuvidir. Uning mohiyati turli xo‘jalik subyektlarining resurslari, kapitallari va boshqaruv tizimini birlashtirish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishdan iborat. Fikrimizcha, biznes birlashuvi korxonalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, iqtisodiy masshtab samarasini yaratadi va investitsion jozibadorlikni oshiradi. Investitsion jozibadorlik esa mamlakat yoki alohida korxonaning ichki va tashqi investorlar uchun qanchalik foydali va ishonchli ekanligini ifodalovchi ko‘rsatkich hisoblanadi. Ushbu jarayonlar mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bevosita uyg‘unlik kasb etadi. Xususan, “O‘zbekiston-2030”[1] strategiyasida iqtisodiy barqaror o‘sishni ta’minlash, xususiy sektor ulushini oshirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish hamda korporativ boshqaruvni takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu vazifalarni samarali amalga oshirishda biznes birlashuvlari muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi[2].

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2026-yil 16-fevral. PF-21-son.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2026-yil 16-fevral. PF-21-son.




*1-rasm.* **“Jahon bo‘yicha M&A (birlashuv va qo‘shib olish) bozori statistik ma’lumotlari (2015–2025)”**

Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda biznes birlashuvlari korxonalarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini kuchaytirishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Dunyo miqyosidagi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, jahon iqtisodiyotida biznes birlashuvlari va qo‘shib olish (M&A mergers and acquisitions) jarayonlari so‘nggi o‘n yillikda iqtisodiy integratsiya va kapital bozorining faolligida muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. MAA operatsiyalari yirik transmilliy korporatsiyalar tomonidan amalga oshiriladi va ular global iqtisodiy rivojlanish, investitsiya oqimi va raqobat muhitining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi.

2015-yildan boshlab jahonda birlashuv va qo‘shib olish operatsiyalari umumiy qiymati taxminan 3,8 trillion AQSH dollarini tashkil etgan. Bu davrda bozordagi faoliyat asosan energetika, moliya va texnologiya sohalarida jadal kechgan bo‘lib, 2016-yilda bu ko‘rsatkich 3,5 trillion dollarga pasaygan, bunga Buyuk Britaniyaning Brexit jarayonlari va AQShdagi siyosiy o‘zgarishlar ta’sir ko‘rsatgan. 2017-2018-yillarda jahon M&A bozorida o‘sish kuzatildi. Xususan, 2017-yilda umumiy qiymat 3,7 trillion dollar, 2018-yilda esa 4,0 trillion dollarga yetdi[3]. 2025-yilning dastlabki 9 oyi bo‘yicha ma’lumotlarga ko‘ra, jahonda birlashuv va qo‘shib olish

[3] McKinsey & Company: Global M&A Trends Report (2024–2025)ning ochik ma’lumotlar bazasidan olindi.

operatsiyalarining umumiy qiymati 1,94 trillion dollarni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2024-yilning shu davriga nisbatan taxminan 10% o‘sishni ifodalaydi. Boston Consulting Group (BCG) va McKinsey ma’lumotlariga ko‘ra, mazkur o‘sish asosan AQSH va Yevropa bozorlaridagi texnologik va energiya sektoridagi yirik bitimlar hisobiga ta’minlangan(1-jadval).

*1-jadval.*

***2015–2025 yillar davomida jahonda amalga oshirilgan biznes birlashuvlari va qo‘shib olish (M&A) operatsiyalarining umumiy qiymati***[4]

| Yillar kesimida | M&A qiymati (trln AQSH dollari) |
|---|---|
| 2015 | 3.8 |
| 2016 | 3.5 |
| 2017 | 3.7 |
| 2018 | 4.0 |
| 2019 | 3.9 |
| 2020 | 2.8 |
| 2021 | 5.1 |
| 2022 | 4.5 |
| 2023 | 3.2 |
| 2024 | 3.4 |
| 2025 (9 oylik ma’lumot) | 1.94 |

Yuqoridagi ma’lumotlar xalqaro manbalar asosida tuzilgan bo‘lib, bozor tendensiyalarining yillik dinamikasini ifodalaydi(1-jadval)[5]. Olib borilgan tadqiqlardan xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonda korxonalarni qo‘shib yuborish va qo‘shib olish jarayonlari (M&A) so‘nggi besh yil ichida iqtisodiy faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Hukumat tomonidan iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy sektor ulushini oshirish va davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlari faollashgani sababli iqtisodiy konsentratsiya bilan bog‘liq bitimlar soni va qiymati yil sayin ortib bormoqda[6]. Qo‘shib yuborish orqali qayta tashkil etilayotgan korxonalar faoliyatini tugatish bilan bog‘liq operatsiyalarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablari asosida hisob va hisobotda aks ettirish tartibini takomillashtirish zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu esa moliyaviy axborotning ishonchliligini ta’minlash, hisobotlarning xalqaro miqyosda taqqoslanuvchanligini oshirish hamda boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

[4] McKinsey & Company: Global M&A Trends Report (2024–2025)ning ochik ma’lumotlar bazasidan olindi
[5] McKinsey & Company (2025), Boston Consulting Group (BCG, 2025), IMAA Institute ma’lumotlari asosida tuzildi.
[6] McKinsey & Company (2025), Boston Consulting Group (BCG, 2025), IMAA Institute ma’lumotlari asosida tuzildi.

Korxonalarni qo‘shib yuborish va qo‘shib olish jarayonlari zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning iqtisodiy salohiyatini kengaytirish, moliyaviy barqarorligini ta’minlash, investitsion jozibadorligini oshirish hamda raqobatbardoshligini kuchaytirishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Jahon M&A bozoridagi o‘zgarishlar ushbu jarayonlarning iqtisodiy faollik va kapital harakatida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat aktivlarini xususiylashtirish, xususiy sektorni rivojlantirish va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan islohotlarning jadallashuvi korxonalarni qayta tashkil etish jarayonlarining amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu bilan birga, qo‘shib yuborish va qo‘shib olish natijasida korxonalar faoliyatida aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromad va xarajatlarning tarkibi hamda qiymatida sezilarli o‘zgarishlar yuzaga keladi. Mazkur o‘zgarishlarni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirish moliyaviy hisobot axborotining ishonchliligi va taqqoslanuvchanligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida qayta tashkil etish jarayonlarini hisobga olishda «identifikatsiya – tan olish – baholash – taqsimlash – hisobga olish – hisobotda aks ettirish – axborotni ochib berish» ketma-ketligiga asoslangan tizimli yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunday yondashuv qayta tashkil etilayotgan korxonalarning aktiv va majburiyatlarini to‘liq aniqlash, ularni tegishli qiymatda baholash hamda huquqiy vorisga o‘tkazish jarayonlarini izchil tashkil etish imkonini beradi. Shuningdek, O‘zbekiston amaliyotida korxonalarni qayta tashkil etish bilan bog‘liq hisob operatsiyalarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga yanada yaqinlashtirish zarur. Xususan, biznes birlashuvlarida aktiv va majburiyatlarni adolatli qiymatda baholash, sotib olish qiymati va baholash natijalari o‘rtasidagi farqlarni hisobga olish, gudvillni aniqlash hamda konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotda tegishli axborotlarni ochib berish masalalariga alohida e’tibor qaratish lozim.

Xulosa qilib aytganda, korxonalarni qo‘shib yuborish va qo‘shib olish jarayonlarini hisobga olish metodologiyasini takomillashtirish nafaqat buxgalteriya hisobining axborot imkoniyatlarini kengaytiradi, balki investorlar, kreditorlar, mulkdorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun yanada ishonchli va taqqoslanuvchan moliyaviy axborot shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli milliy buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bilan uyg‘unlashtirish, qayta tashkil etish operatsiyalarini hisobga olishning yagona metodik yondashuvlarini ishlab chiqish hamda moliyaviy hisobotlarda ushbu jarayonlar to‘g‘risidagi axborotlarni to‘liq ochib berish korxonalar faoliyatining

shaffofligi va investitsion jozibadorligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ–4611-son qarori «Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida».
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi PQ–282-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son Farmoni «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida».
4. IFRS 3 «Business Combinations». IFRS Foundation. – 2024.
5. IFRS 13 «Fair Value Measurement». IFRS Foundation. – 2024.
6. IAS 36 «Impairment of Assets». IFRS Foundation. – 2024.
7. Urazov K.B., Abdurasulov J.A. Biznesni birlashtirishni amalga oshirish sharoitida hisob va hisobotning konseptual masalalari. – Samarqand, 2022. – 64 b.
8. Безвидная О.С. Бухгалтерский учет и отчетность в условиях реорганизации. – М., 2019.
9. Плотников В.С., Плотникова О.В. Бизнес-комбинации и гудвилл в МСФО. – М.: Финансы и статистика, 2020.
10. Xudaynazarova D.G. Farmasevtika korxonalarida biznes jarayonlari hisobini tashkil etishning dolzarb masalalari // Symposium on Advanced Studies and Future Directions. International Multidisciplinary Research Conference. – Barcelona, 2025. – B. 92–100.
11. Boronov B.F. Yog‘-moy sanoati korxonalarida xarajatlar tarkibi va ularning hisobini takomillashtirish // Moliya. – Toshkent, 2022. – №5. – B. 61–67.
12. Onorboev Sh. Kimyo sanoati korxonalarida xarajatlar va ularni tashkil etish xususiyatlari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2026. – May. – B. 114–125.
13. Boronov B.F. Yog‘-moy mahsulotlari hisobi metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2023. – 244 b.
14. Urazov K.B., Boronov B.F. Respublika oziq-ovqat sanoatida yog‘-moy mahsulotlarining ahamiyati va turlari // Ekonomika i sotsium. – 2022. – №6-2 (97). – B. 714–719.

15. Boronov B.F. Yog‘-moy mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlari hisobining nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish // ISSN 2181-3191. – 2022. – T. 1. – №7. – B. 202–284.